




№383, 6-oktyabr, 2021 y.



COVID-19 ga qarshi vaksinalarning
ishlanmalari bo'yicha

DAYJEST



O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi huzuridagi
Ilmiy-texnik axborot markazi











Toshkent-2021

Jahonda pandemiya bilan bog'liq vaziyat

2021 y. 5-oktyabr holatiga ko'ra

Umumiy zararlanganlar soni	-	236 368 875	(+ 347 531)
Sog'ayganlar soni	-	213 449 896	(+ 553 744)
Vafot etganlar soni	-	4 826 358	(+ 5 049)

Mamlakatlar bo'yicha bemorlar soni

	AQSh	-	44 690 607	(+ 73 729)
	Hindiston	-	33 869 007	(+ 18 002)
	Braziliya	-	21 478 546	(+ 10 425)
	Buyuk Britaniya	-	7 967 985	(+ 33 869)
	Rossiya	-	7 637 427	(+ 25 110)
	Turkiya	-	7 267 077	(+ 28 810)
	Fransiya	-	7 028 197	(+ 1 138)
	Eron	-	5 651 961	(+ 13 226)
	Argentina	-	5 260 719	(+ 981)
	O'zbekiston	-	176 019	(+ 304)

Manba: <https://www.worldometers.info/coronavirus/>



O'zbekistonda COVID-19 qarshi vaksinatsiya bo'yicha hisobot

2021 y. 5-oktyabr holatiga ko'ra

Hududlar	Jami emlanganlar soni	Bir kunda emlanganlar soni
Qoraqalpog'iston Respublikasi	1 088 495	12 262
Andijon viloyati	2 286 707	20 086
Buxoro viloyati	1 209 151	15 734
Jizzax viloyati	936 303	6 984
Qashqadaryo viloyati	1 589 657	12 841
Navoiy viloyati	950 406	5 025
Namangan viloyati	2 236 777	23 045
Samarqand viloyati	2 074 850	16 500
Surxondaryo viloyati	1 768 299	39 554
Sirdaryo viloyati	546 398	3 632
Toshkent viloyati	1 809 980	30 997
Farg'ona viloyati	2 322 553	22 411
Xorazm viloyati	1 255 633	36 640
Toshkent sh.	1 216 800	11 177
Jami	21 292 009	256 888

Manba: SSV matbuot kotibi // <https://t.me/ssvmatbuotkotibi>



Olimlar O'RV1 ning mavsumiy tarqalishiga COVID-19 pandemiyasining "qo'shilishi" haqida ogohlantirmoqda



G'arb olimlarining so'zlariga ko'ra, mavsumiy virusli kasalliklar - O'RV1 yoki grippning ko'payishi koronavirus pandemiyasini ikki baravar xavfli bo'lishiga olib kelishi mumkin deb ogohlantirdi va bu holatga inglizcha twins - "egizaklar" so'zidan kelib chiqqan holda, yangi atama - "tvindemiya" ni qo'llashdi deb xabar berdi, Garvard tibbiyot maktabi olimlariga

asosanib BBC xalqaro axborot agentligi [2].

Tadqiqotchilarning taxminiga ko'ra, tvindemiya sayyoramizning shimoliy yarim sharida o'zini namoyon qilishi mumkin, dedi. Havo haroratining sovushi oqibatida odamlarda tez -tez kasal bo'lishadi deb taxmin qilinmoqda. Shimoliy yarim sharda shamollash mavsumi odatda birinchi sovuq havoning boshlanishi bilan boshlanadi va deyarli olti oy davom etadi.

O'tgan, 2020-yil, mamlakatlar tomonidan karantin choralari qabul qilinganligi sababli istisno bo'ldi. Maktablarning aksariyati yopildi, kattalar asosan uyda qolishdi, shu sababli shamollash va gripp yuqishi uchun sabab bo'lmadi [3].

Masalan, AQSHda har yili gripp virusi 20 dan 60 minggacha insonlarni oramizdan olib ketadi, ulardan kamida 200 tasi bolalar bilan yuz beradi. o'tgan mavsumda esa faqat bitta bola vafot etdi. Hammasi bo'lib, sentyabrdan martgacha 330 millionlik mamlakatda gripp bilan kasallangan bemorlar soni atigi o'n besh yuztani tashkil etdi.

Mutaxassislarning fikricha, bu kuzda vaziyat boshqacha bo'lishi mumkin. Rivojlangan mamlakatlarda aholining katta qismi COVID-19 ga qarshi emlanganligi sababli rasmiylar asta-sekin cheklov choralarini olib tashlashmoqda. Bu borada, rivojlangan mamlakatlarda shamollashning o'sishida ijobiy tendensiya kuzatilmoqda [4].



Yevropaning EMA regulyatori COVID-19 vaksinalarining uchinchi dozasini qo'llashni ma'qulladi

Yevropa Dorilar Agentligi (EMA) 18 yoshdan oshgan bemorlar uchun vaksinaning "kuchaytiruvchi" uchinchi dozasini qo'llashni ma'qulladi, deb xabar bermoqda Euronews Yevropa axborot agentligi [5].

Shuningdek, Yevropa regulyatori ikkinchi inyeksiyadan kamida olti oy o'tgach, jiddiy kasalliklari mavjud bo'lmagan odamlarga koronavirusga qarshi Pfizer va Moderna vaksinalari bilan uchinchi marta emlash zaruriyatini tasdiqladi. Immuniteti zaif odamlarda ikkinchi dozadan keyin kamida 28 kundan keyin qayta vakcina olish tavsiya etiladi. Endilikda EMA barcha tavsiyanomalarni Yevropa komissiyasiga tasdiqlash uchun yuboradi, so'ngra 27 a'zo mamlakatlarning sog'liqni saqlash organlariga yuboriladi. Ta'kidlash joizki, ba'zi mamlakatlarda revaksinatsiya allaqachon boshlangan.



Agentlik veb-saytida qayd etilishicha, EMAning dorilar bo'yicha qo'mitasi tadqiqot natijalarini o'rganib chiqib, bu vaksinaning qo'shimcha dozasi, organlari ko'chirilgan, immuniteti zaif bemorlar orasida koronavirusga qarshi antitanalar ishlab chiqarish qobiliyatini oshiradi degan xulosaga kelishgan [6].

Butun jahon sog'liqni saqlash tashkiloti rahbari rivojlangan davlatlarni bu yil kuchaytiruvchi dozalaridan foydalanmaslikka chaqirib, emlash zarurligini tasdiqlovchi ilmiy dalillar yo'qligini aytdi. Uning so'zlariga ko'ra, COVID-19 vaksinalari eng yaxshi rivojlanayotgan mamlakatlarda qo'llanilmoqda, ayrim mamlakatlarda esa odamlar hali ham birinchi dozani olmagan [7].



Isroilda vaksinaning uchinchi dozasi bilan majburiy emlash joriy etildi

Isroil koronavirusga qarshi vaksinaning uchinchi dozasi bilan majburiy emlashni joriy etdi, deb xabar beradi The New York Times. Endilikda, agar fuqaro 6 oydan ko'proq vaqt avval koronavirusga qarshi ikkinchi dozani olgan bo'lsa, COVID pasporti o'z kuchida qolishi uchun qayta vakcina olish lozim bo'ladi [8].




Bundan tashqari, oxirgi olti oy ichida kasallikdan tuzalganlar COVID sertifikatini olishlari mumkin edi. Biroq, bu insonlar guruhi uchun qoidalar o'zgardi: endilikda ular hujjatni olish uchun kamida bitta vaksinani qabul qilishi kerak. Bunday yangiliklar tufayli 1,7 dan 1,9 milliongacha fuqarolar COVID sertifikatlarini boy berishadi.

Bunday o'zgarishlar, Isroilda eng keng tarqalgan Pfizer vaksinasining ikkinchi dozasi 5 yoki 6 oy o'tgach, odamlarda immunitetning sezilarli pasayishi qayd etilganidan keyin joriy etildi.



"Sputnik V" ishlab chiquvchilari vaksinaning JSSTda ro'yxatdan o'tkazish taxminiy sanasini e'lon qilishdi



Gamaleya markazi taxminiga ko'ra, ular tomonidan ishlab chiqarilgan koronavirusga qarshi "Sputnik V" vaktsinasi Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti tomonidan noyabr oyi oxiriga qadar ro'yxatga olinishini mumkin. Bu haqda "SARS-CoV-2 keltirib chiqargan pandemiyaga qarshi kurashish istiqbollari" ekspertlar munozarasi paytida Gamaleya markazining

Novosibirskdagi patogen mikroorganizmlarning populyatsion o'zgaruvchanligi mexanizmlari laboratoriyasi mudiri Vladimir Gushchin ma'lum qildi [10].

"Xalqaro kun tartibi bilan shug'ullanuvchi Rossiyaning to'g'ridan-to'g'ri investitsiya fondi (RTIJ) ning hamkasblari bu yo'nalishda ancha faol ish olib borishmoqda. O'ylaymanki, bu tez orada hal bo'ladi. Aslida biz buni sentyabr oyida bo'lishini kutgandik, ammo bu kelgusi- oktyabr-noyabr oylarida bo'lishini tushundik", - dedi Gushchin.



Argentining Richmond Laboratoriyes farmatsevtika kompaniyasi rahbari Marcelo Figueiras bundan oldin ham shunday vaqt oralig'ini e'lon qilgan edi. "Bizda mavjud ma'lumotlarga ko'ra, 1-2 oy ichida tasdiqlanishi muqarrar. Vaktsinaning xavfsizligi ham, samaradorligi ham xavf ostida emas", - dedi tadbirkor.

Rossiya Federatsiyasi Sog'liqni saqlash vazirligi rahbari Mixail Murashko "Biotexmed" forumida JSST vaktsinaga hech qanday shikoyati yo'qligini, faqat hujjatlar borasida savollar borligini ma'lum qildi. Murashko ro'yxatga olish uchun zarur bo'lgan hujjatlar taqdim etilganini qo'shimcha qildi [11].

1. Reported Cases and Deaths by Country, Territory, or Conveyance // <https://www.worldometers.info/coronavirus/> (5.10.2021 г.)
2. Двойной удар: ученые предупреждают об опасности "твиндемии" // <https://www.bbc.com/russian/features-58757506> (5.10.2021 г.)
3. Why Risk of a Flu, COVID-19 'Twindemic' Is Higher This Year // <https://www.healthline.com/health-news/why-risk-of-a-flu-covid-19-twindemic-is-higher-this-year> (5.10.2021 г.)
4. Ученые заговорили о твиндемии: это наложение пандемии COVID-19 на вспышку сезонных ОРВИ // <https://www.bfm.ru/news/482880> (5.10.2021 г.)
5. В ЕМА одобрили третью дозу // <https://ru.euronews.com/2021/10/04/ema-approved-booster> (5.10.2021 г.)
6. Comirnaty and Spikevax: EMA recommendations on extra doses and boosters Share // <https://www.ema.europa.eu/en/news/comirnaty-spikevax-ema-recommendations-extra-doses-boosters> (5.10.2021 г.)
7. ЕМА одобрило применение третьей дозы вакцин от COVID-19 // https://www.inform.kz/ru/ema-odobrilo-primeneniye-tret-ey-dozy-vakcin-ot-covid-19_a3844731 (5.10.2021 г.)
8. Israel will require a booster shot to be considered fully vaccinated // <https://www.nytimes.com/2021/10/03/world/israel-covid-booster.html> (5.10.2021 г.)
9. В Израиле ввели обязательную прививку третьей дозой вакцины: подробности // <https://sud.ua/ru/news/abroad/215705-v-izraile-vveli-obyazatelnuyu-privivku-tretyey-dozy-vaktsiny-podrobnosti> (5.10.2021 г.)
10. Разработчики "Спутника V" рассчитывают на регистрацию вакцины в ВОЗ до конца ноября // <https://tass.ru/obshchestvo/12578769> (5.10.2021 г.)
11. Разработчики "Спутника V» назвали вероятную дату регистрации вакцины в ВОЗ // <https://lenta.ru/news/2021/10/05/voz/> (5.10.2021 г.)



O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi huzuridagi
Ilmiy-texnik axborot markazi

Toshkent-2021